

## YERLARNI MUHOFAZA QILISH BO`YICHA QONUN HUJJATLARI

### Bazarbayeva Go`zal Rustam qizi

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.

**Annotatsiya:** *O‘zbekiston Respublikasida yerlarni muhofaza qilish tizimining huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish, ularni hozirgi zamon talablariga javob berish darajasini aniqlash va yanada takomillashtirish borasida tegishli nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *Yerni muhofaza qilish, Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, Harakatlar strategiyasi, Yer kodeksi, tabiiy resurs,*

Yer boyliklaridan samarali, ilm-fan tavsiyalari, tabiatning umumiy qonuniyatlari asosida foydalanish va uning muhofazasini to‘g‘ri ta‘minlash, shakshubhasiz, hozirgi davrning birinchi darajali vazifalaridan biridir. Shunday ekan qishloq ho‘jaligini yanada takomillashtirish yerlardan oqilona foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni jalb etish kabi vazifalarni O‘zbekiston ni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 3.3. bandida Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish masalalari ya‘ni sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanishni tshkil etish [5] kabi masalalar belgilanib o‘tilgan.

Yerlarni muhofaza qilish masalasi jamiyatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga molik vazifasidir. Chunki, xalqning moddiy faravonligi tabiatning bebaho boyligi, barcha jonzodni boquvchisi hisoblangan yerga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababdan, yer resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish juda muhim ahamiyatga egadir. Yerni umummilliy boyluk sifatida muhofaza qilish masalasi O‘zbekiston Respublikasini mustaqilligi e‘lon qilingan dastlabki kunidayoq qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir. Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi” [1].

Keyinchalik bu norma asosiy qonunimiz xisoblanmish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada xam o‘z aksini topgan. Xususan, Konstitutsiyaning 55- moddasida “yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylukdir, ulardan

oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida” deb belgilab qo’yilgan. Ushbu normalardan ko’rishimiz mumkinki, yer umummilliy boylik sifatida asosiy qonunlarimiz bilan ham muhofaza qilinadi. Bundan tashqari, Yer kodeksining 1-moddasida ham shunday norma belgilangan. Unda belgilanganidek, “yer umummilliy boylikdir, O’zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi”. Yerni muhofaza qilish maqsadi hududni oqilona tashkil etish, tuproq unumdorligini, shuningdek yerning boshqa xossalarini tiklash, yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlashdan, qayta sho’r bosishdan, qaqrab qolishdan, zarangashishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan himoya qilish, qishloq xo’jalik yerlarini buta va mayda dovdaraxtlar, yovvoyi o’tlar bosib ketishidan va yerlarning madaniy texnikaviy holatini yomonlashtiruvchi boshqa jarayonlardan himoya etish, yerlarni konservatsiya qilish, yerning unumdorligini oshirishga qaratilgan bo’ladi. Yerning tabiiy resurs sifatida shunday alohida xususiyati borki, unga to’g’ri munosabatda bo’linsa, uni muhofaza etish to’g’risida g’amxo’rlik qilinsa hosildorligi doimo oshib boradi. Aksincha esa uning holati yomonlashib, foydalanish uchun yaroqsiz ahvolga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun yer egalari, mulkdorlari, foydalanuvchilari doimo tuproq unumdorligi to’g’risida g’amxo’rlik qilishlari, yerning sifatini yaxshi saqlashga asosiy e’tibor qaratishlari lozim. Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish har xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shunday usullardan eng muhimlaridan biri - yer boyliklarini huquqiy muhofaza qilishdir, ya’ni yerni qonunlar yordamida buzilib tashlanishdan, ifloslanishdan, zaharlanishdan, ishdan chiqishdan himoya etishdir. Demak, yer resurslarini muhofaza qilishda huquqning roli beqiyos hamda alohida ahamiyatga ega.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 2-moddasi “yer to’g’risidagi qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari” deb nomlanadi. Unga ko’ra, yer to’g’risidagi qonun hujjatlari quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;
- yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash;
- qishloq xo’jaligi uchun mo’ljallangan yerlarning, eng avvalo sug’oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borilishini hamda ulardan qat’iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta’minlash;
- qishloq xo’jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo’li bilan va boshqa tarzda qo’llab-quvvatlash;

- yerga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

- yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;

- yerdan foydalanlik uchun haq to'lash;

- yerlarning holati haqidagi axborotning to'liq bo'lishini hamda undan erkin foydalanishga yo'l qo'yilishini ta'minlash [2]. Kabilar.

Yer kodeksining ushbu normasida belgilangan prinsiplarning deyarli barchasi yerlarni huquqiy muhofaza qilish va asrash majburiyatidan kelib chiqil belgilangan. Misol uchun, eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish prinsipini oladigan bo'lsak, bunda yer eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi sifatida talqin etiladi. Shunday ekan, har bir shaxs yerini eng muhim tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi sifatida tushinib, unga nisbatdan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi lozim.

**XULOSA.** Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, yer resurslarini huquqiy muhofaza qilish deganda yerdan oqilona foydalanish, uni qishloq xo'jaligi oborotidan asossiz ravishda tortib olinishning oldini olish, zararli antropogen ta'sirdan himoya qilish, shuningdek tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, o'rmon fondi yerlarining samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [1] O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991 yil, N 9-12, 268-modda).

2. [2] O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

3. Nigmatov A.N. Yer huquqi. //O'quv qo'llanma- Toshkent Islom universiteti, 2001. B-198.

4. Файзиев Ш.Х. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан. Дисс. на соис. уч. степ. док. юридик. наук. Т., 2004. С-235.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 982-modda.